

4-SHO'BA: BADIY VA ILMIY TARJIMA MASALALARI

DOMINANT TILLAR TA'SIRI OSTIDA MILLIY TIL EKOLOGIYASI VA LEKSIK INTERFERENSIYA

Zokirov Muxtorali Turdaliyevich,

Farg'ona davlat universiteti professori, f.f.n.

Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna,

Farg'ona davlat universiteti professori, f.f.d.

Annotatsiya

Tilshunoslikning so'nggi yutuqlari tillarning hayotiyliigi, yashash istiqbollari va yo'q bo'lib ketish xavfi bilan shug'ullanuvchi areal tilshunoslik va ekolingvistika kabi yangi sohalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Sinergetik tamoyillarga asoslanib, ushbu yondashuvlar ba'zi tillarning qanday qilib "global ommaviy axborot vositalari" ga aylanishini va boshqa tillarni o'z ta'sir doirasiga jalb qilgan holda "jalb qiluvchi" sifatida harakat qilishini ko'rsatadi. Musulmon dunyosida arab tilining, nasroniy dunyosida lotin tilining, zamonaviy vaziyatda esa global makonda ingliz tilining kuchli ta'siri yorqin misollardir. Maqolada tarjimaning adabiy tilni boyitishdagi o'rni ta'kidlangan, chunki madaniyatlararo aloqalar semantik yaqinlashuv va muloqotni soddalashtirishga yordam beradi. Biroq dominant tildan leksik birliklar va tushunchalarning kirib kelishi milliy madaniy o'ziga xoslikni yo'qotishdan xavotir uyg'otishi mumkin. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ommaviy ikki tillilik holatida "tegishli so'zlar"ning aralashuvi leksik-semantik me'yorlarning buzilishiga olib keladi. Tildan foydalanishdagi salbiy tendentsiyalarni (degradatsiyani) o'rganish va tiklash (reabilitatsiya) strategiyalarini izlashni o'z ichiga olgan "lingvistik ekologiya" kontseptsiyasiga alohida e'tibor beriladi. Maqolada turkman va o'zbek kabi bir-biriga yaqin bo'lgan tillar o'rtasidagi tarjimalarda aralashuv xatolariga misollar keltirilgan, bu ko'pincha tegishli manbalar va maxsus lug'atlarning yo'qligi bilan izohlanadi. Mualliflar "tarjimonning soxta do'stlari" masalasiga yanada ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga, ommaviy axborot vositalarida va rasmiy nutqda leksik me'yorlarni saqlashga, shuningdek, globallashtirish sharoitida madaniy qadriyatlarni saqlash va tillarning barqaror evolyutsiyasi uchun zarur bo'lgan lingvistik o'z-o'zini anglashni rivojlantirishga chaqiradi.

Tayanch soʻzlar: areal tilshunoslik, ekolingvistika, ikkitillilik, leksik interferensiya, global til, tarjima, kongruent soʻzlar, sinergetik tamoyillar, til hayotiyligi.

Аннотация

Недавние достижения в лингвистике привели к появлению новых направлений, таких как ареальная лингвистика и эколлингвистика, которые занимаются вопросами жизнеспособности языков, их перспективами выживания, а также угрозой исчезновения. Опираясь на синергетические принципы, эти подходы показывают, каким образом некоторые языки становятся «глобальными средствами коммуникации» и выступают «аттракторами», вовлекая другие языки в сферу своего влияния. Яркими примерами служит сильное воздействие арабского языка в мусульманском мире, латыни — в христианском, а в современной ситуации — английского языка в глобальном пространстве. В статье подчёркивается роль перевода в обогащении литературного языка, поскольку межкультурные контакты способствуют семантическому сближению и упрощению коммуникации. Однако проникновение лексических единиц и понятий из доминирующего языка может вызвать опасения относительно утраты национальной культурной самобытности. Исследователи отмечают, что при массовом двуязычии интерференция «конгруэнтных слов» приводит к искажению лексико-семантических норм. Особое внимание уделяется понятию «лингвистическая экология», которая охватывает изучение негативных тенденций (деградации) в употреблении языка и поиск стратегий восстановления (реабилитации). В работе приведены примеры интерференционных ошибок в переводах между близкородственными языками, такими как туркменский и узбекский, что часто объясняется недостатком соответствующих ресурсов и специализированных словарей. Авторы призывают к более тщательному учёту «ложных друзей переводчика», к поддержанию лексических норм в СМИ и официальном дискурсе, а также к развитию языкового самосознания, необходимого для сохранения культурных ценностей и стабильной эволюции языков в условиях глобализации.

Ключевые слова: ареальная лингвистика, эколлингвистика, двуязычие, лексическая интерференция, глобальный язык, перевод, конгруэнтные слова, синергетические принципы, жизнеспособность языка.

Abstract

Recent developments in linguistics have given rise to new subfields such as areal linguistics and ecolinguistics, both of which are concerned with the vitality, prospects for survival, and endangerment of languages. Drawing on synergetic principles, these approaches illuminate how certain languages become “global means of communication” and act as “attractors,” drawing other languages into their sphere of influence. This phenomenon is illustrated by the strong impact of Arabic in the Muslim world, Latin in the Christian world, and—most recently—English in the global arena. The article emphasizes the role of translation in enriching literary language, as cross-cultural contact fosters semantic alignment and communicative ease. However, the infiltration of lexical items and concepts from a dominant language can raise concerns about dilution of national cultural identity. Researchers underscore that in conditions of widespread bilingualism, the interference from so-called “congruent words” contributes to lexical and semantic distortions. A key focus of the work is on the notion of “linguistic ecology,” which encompasses both the study of harmful tendencies (degradation) in language use and the strategies for restoration (rehabilitation). Interference issues are documented in translations between closely related languages, such as Turkmen and Uzbek, often resulting from a lack of resources and specialized dictionaries. The text calls for more careful documentation of “false friends,” the consistent maintenance of lexical norms in mass media and official discourse, and the cultivation of linguistic awareness to preserve cultural values and ensure the stable evolution of languages in a globalizing world.

Key words: areal linguistics, ecolinguistics, bilingualism, linguistic ecology, lexical interference; global language, translation, congruent words, synergetic principles, language vitality.

Keyingi paytlarda tilshunoslik fanining taraqqiyoti natijasida areal lingvistika va ekolingvistika kabi yangi yo‘nalishlar yuzaga keldi. Har ikki soha ham tillarning yashab qolishi va istiqboli, tillarning o‘lish jarayoni, yo‘qolib borish va o‘lim xavfi ostida turgan tillar (yendangered languages) kabi muammolarni o‘rganadi [4, 79].

Dunyoda 3000 dan ortiq tillar ichida muayyan bir tilning “global aloqa vositasi” bo‘lishga intilishi va bu jarayonda “attraktorlik” rolini o‘ynashi (boshqa barcha tillarni o‘z ta’sir doirasiga olishi va o‘ziga jalb etishi) sinergetika qonunlarining amal qilishini tasdiqlaydi. Mazkur jarayon bilan bog‘liq ravishda musulmon dunyosidagi tillarga arab tilining (o‘sha tillar lug‘atida arabizmlarning ko‘plab uchrashi), xristian dunyosidagi tillarga lotin tilining (o‘sha tillar lug‘atida lotincha so‘zlarning ko‘pligi) kuchli ta’siri, hozirgi kunda esa barcha tillarga ingliz

tilining ta'siri (barcha tillarning lug'atiga amerikanizmlarning faol kirib kelayotganligi) sezilib turadi [4, 79].

Adabiy tilning boyib rivojlanishida tarjimachilikning ma'lum roli borligini unutmash kerak. Bir adabiy til bir necha mamlakatlar doirasida amal qilgan taqdirda, uning ta'siri har bir xalq tiliga o'tib, muloqotda semantik umumiylik, qulaylikka yo'l ochiladi. Fransuz tilining ingliz tiliga ana shunday ijobiy ta'siri til tarixchilari tomonidan alohida ta'kidlangan. Angliya Normandiyadan ajraganidan so'ng mazkur ta'sir to'xtamagan edi, uni birinchi bosqichda vujudga keltirgan siyosiy omillar o'rniga madaniy omillar shakllanib, fransuz tilining ta'siri pasayish o'rniga kuchayib ketadi. Ingliz tilida fransuz so'zlari o'zaklarining mustahkam o'rinishi keyinchalik ingliz tilining lotin o'zlashmalari hisobiga boyishiga yo'l ochadi [15, 56]. Bu kabi hodisalar boshqa tillarda ham seziladi: XI asrgacha bo'lgan forsiy asarlarda arabiy o'zlashmalarning nisbiy miqdori 10-15 % ni tashkil qilgan bo'lsa, XII asrda 22%ni, arab tilining din va fan tili sifatida mavqei balandlashuvi tufayli XIV asrga kelib, arab leksikasining miqdori 70-80%ga etib boradi [6, 36].

Lingvoekologiyaning asosiy tushunchalaridan biri buzilish (degradatsiya) va tiklanish (reabilitatsiya)dir. Bu kategoriya til buzilishining xavfli alomatlarini tadqiq etish, ularga qarshilik ko'rsatish, til sofligini saqlanib qolish uchun shart-sharoit yaratish, barqaror rivojlanishiga ko'maklashish va til jozibadorligini saqlashni nazarda tutadi. Barqaror rivojlanishda, hozirgi va kelgusi avlodlar talab-ehtiyojlarining qondirilishiga xavf tug'dirmaydigan rivojlanish tushuniladi [3, 20]. Bilingvizm sharoitida lingvistik me'yorlarning buzilishi, asosan, kongruent so'zlar natijasida yuzaga kelgan interferensiya oqibatida hosil bo'ladi. Jamiyat hayotidagi signal sistemasi bo'lgan tilning o'rnini va ushbu tizimni amalga oshirish vositasi bo'lgan nutq, tilshunoslarni jamiyat nutqi amaliyotida yuz berayotgan jarayonlarni kuzatishga undaydi. Tilning rivojlanishi va ishlatilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni o'rganish til ekologiyasining asosiy vazifalaridandir.

Lingvistik ekologiya nafaqat ijtimoiy nutq amaliyotidagi nuqsonlarini aniqlash va tegishli tavsiyalarni tayyorlashni, balki lingvistik ijodning muvaffaqiyatli natijalarini aniqlash, belgilash va targ'ib qilishni ham o'z ichiga oladi. Interferensiyani yuzaga keltiruvchi omilning oldini olishga yo'naltirilgan «kongruent so'zlar» asosidagi differensial lug'atlarni yaratish va nashr qilish ham lingvoekologiyaning muhim vazifalari tarkibiga kiradi.

Bugungi kunda yozma va og'zaki nutq shakllarining deyarli barcha jihatlarida buzilish, noo'rin so'z qo'llash holatlari uchrab turibdi. Bu borada reklama, ish yo'riqnomalari, kundalik hayot va kasbdoshlar muloqoti, ommaviy axborot vositalari matnlari va h.k.larda ishlatiladigan chet tilidan kirib kelgan so'zlarni

asosiy ustuvor xatoliklar sifatida ko'rsata olamiz. Ma'lumki, til ommaviy axborot vositalarida qanchalik to'g'ri qo'llanilsa, u o'z funksiyalarini shunchalik yaxshiroq bajaradi. Ommaviy axborot vositalarining millionlab odamlar ongi, nutqi, didi va afzal ko'rgan narsalariga ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ta'siri oila, maktab va boshqa ijtimoiy ta'sirlardan kam emas. Shuning uchun til me'yorlariga qat'iy rioya qilish davlat til siyosatining asosini tashkil qilishi va, birinchi navbatda, ta'lim, huquqshunoslik, muzokaralar jarayonlari, ish yuritish va ommaviy axborot vositalari faoliyatida bo'lishi kerak [9].

Xalq o'z tarixini, madaniyatini, o'zligini anglashi uchun o'z tilini puxta o'rganishi va uni sof holda saqlashi juda muhim, biroq jamiyat taraqqiyoti, xalqlar o'zaro aloqa-aralashuvda ekan, tilni sof holda saqlash qiyinlashaveradi. Mahmud Koshg'ariy bu haqda shunday deydi: "Eng to'g'ri va aniq til faqat birgina shu tilni biladigan, forslar bilan aralashmagan va shaharlarga borish-kelish qiladigan kishisi bo'lmagan odamlarning tilidir. ...ikki tilda so'zlaydiganlar va boshqa shaharlarga borib yurganlar tilida buzuqlik bordir" [5, 11]. Keng tarqalgan ikki tillilik tufayli vujudga kelgan interferent leksik va semantik o'zlashmalarning faollashuvi jamiyatning barcha sohalarini, shu jumladan, tilni qamrab oluvchi globallashuv jarayoni ta'sirining yorqin namunasidir. Globallashuv turli mamlakatlar madaniyatlari yaqinlashuvi hamda xalqaro aloqalarning o'sishi bilan tavsiflanadi. Bir tomondan, bu jarayon dunyo bo'ylab alohida milliy madaniyatlarni ommalashtirishga olib kelsa, ikkinchi tomondan, mashhur xalqaro madaniy hodisalar milliy madaniyatlarni siqib chiqarishi mumkin.

Globallashuv ko'pincha amerikalashtirish bilan taqqoslanadi va ingliz tili amerika variantining dunyo xalqaro aloqa tili sifatida keng qo'llanilishi AQSH madaniyati ta'sirining yorqin namunasi hisoblanadi. Bunda ommaviy axborot vositalari, ommabop ilmiy va badiiy kitoblar, filmlar tarjimasi, Internetning keng tarqalishi va xalqaro turizm katta rol o'ynaydi. Natijada dunyoning ko'plab tillari ingliz tilining ta'siriga uchraydi. Ko'pchilik gegemon til undan asossiz so'z o'zlashtirishni milliy madaniy qadriyatlarni yo'qotish sifatida baholaydi.

Ingliz tilidan qilingan tarjimalarda ko'plab kongruent so'zlar ta'siri natijasida yuzaga kelgan kalkalarni uchratish mumkin, masalan, ingliz tilidagi *waggon* ('foytun') o'rniga rus tilidagi *вагон* so'zi yoki ingliz tilidan *dotsent* o'rnida 'assistent, professor' sifatida noto'g'ri tarjima qilingan [1, 374-375].

Soxta baynalmilal (kongruent) so'zlarni kalkalash tarjima matnlaridagi eng keng tarqalgan xatolardan biridir. Ammo A.A.Shilonosova tomonidan olib borilgan tajriba natijalari globallashuv sharoitida ba'zi holatlarda, xalqaro miqyosda maksimal darajada saqlanib qolgan so'zma-so'z tarjima, ya'ni juda ko'p ilmiy matnlarni tarjima qilishda, aksincha, eng aniq va tushunarli ekanligini

isbotladi. Bu, birinchidan, zamonaviy atamalar juda dinamik va xalqaro muvofiqlashishga tobe bo'lishi bilan izohlanadi (masalan, bugungi kunda "investitsiya" atamasi "kapital kiritish" birikmasidan ko'ra ancha keng tarqalgan) va ikkinchidan, takroriy variantni tanlab tarjimadan qochishga urinishlar, ya'ni sinonimlardan foydalanish ko'pincha noto'g'ri tarjima va ma'noning buzilishiga olib keladi [14].

Nutqda kongruent so'zlar ta'siri ostida leksik interferensiyaning quyidagi turlari mavjud bo'lishi mumkin: so'z ishlatishning leksik me'yorlarini buzish va so'z birikmasi semantikasi darajasida so'zlarning leksik-semantik moslashuvida namoyon bo'ladigan leksik xatoliklar. Gaplarda interferent xatoliklar kamroq kuzatiladi.

K.Chukovskiy T.G.Shevchenko she'rlarining F.Sologub tomonidan noto'g'ri tarjima qilinganligiga misollar keltiradi. Uning ta'kidlashicha, T.G.Shevchenko asarlarining tarjimasida qiyinchilik «ukrain tilida ko'pincha rus tilidagi kabi so'zlarning uchrashi, lekin ular boshqa narsani anglatishidan»dir. Masalan, F.Sologub «Пишла луна гаем» satrini «Пошла луна лесом» (Oy o'rmondan o'tdi) deb tarjima qiladi. Vaholanki, ukrain tilida «луна» so'zi 'tovush, aks-sado' (BTCCYM-628) degan ma'noni anglatadi va «пишла луна» birikmasi 'aks sado eshitildi' tarzida tarjima qilinishi kerak bo'ladi [12, 330]. Stilistik xatolar, ya'ni funksional uslub birligi talablarining buzilishini alohida ta'kidlash kerak. Uslubiy bo'yoqdor so'zlar va stilistik vositalardan asossiz foydalanish singari xatoliklar asosan gaplar doirasida yuzaga keladi.

Bizda qardosh tillar muammolari, ularning o'zaro o'xshash va farqli qirralari chuqur o'rganilmaydi, o'zaro yaqin tillar bo'yicha darslik va maxsus lug'atlar ham yo'q.

Qardosh tillardan amalga oshirilayotgan tarjimalarda xato-kamchiliklar o'tib ketishini shu bilan izohlash to'g'ri bo'ladi. Bu mulohaza turkman tilidan tarjima qiladigan mutaxassislarga ham tegishli. Turkman tilini professional darajada bilmaganlari uchun deyarli barcha tarjimonlar sof turkmancha so'zlar tarjimasida ko'plab xatolarga yo'l qo'yishadi. Masalan, ko'p tarjimonlar *bevaj* so'zini tarjima qilmay, aynan qoldirishadi. Turkman tilida *бивеч* – yo'ldan ozgan, gumroh, buzuq, fosiq, sayoq, yaramas, qo'lidan ish kelmaydigan, bir pulga qimmat odam kabi salbiy ma'nolarda qo'llanadi. O'zbek tilida esa (biror sabab, asos bo'lmagani holda; vajsiz, sababsiz) ma'nolarini bildiradi [8, 14]. Binobarin, Maxtumqulining:

Гүмрах болуп, ёл йитурдим,

Отурдым бивечлер биле

kabi misralarini J.Sharipovning:

Gumroh bo'lib, yo'l yitirdim,

O'ltirdim bevajlar bilan.

tarzida tarjima qilishi to'g'ri emas. E.Ochilov uni:

Gumroh bo'lib, yo'l yitirdim,

Topishdim beboshlar bilan.

deb to'g'ri tarjima qilgan. Lekin bu so'z ko'pincha boshqa tarjimonlarda ham aynan qoldiriladi. Yoki: «Магтымгулы айдар, багтым бивечдир» misrasini J.Sharipov «Maxtumquli, bildim: baxtim bevajdir» deb tarjima qiladi. M.Kenjabek ham misrani xuddi shunday so'zma-so'z tarjima qiladi: «Maxtumquli aytar: baxtim bevajdir». Afsuski, turkman tilidan yaxshi xabardor A.Jumayev va J.Zulpiyevlar ham bu borada avvalgi tarjimonlar xatolarini takrorlaganlar.

Izlanishlar natijasida soxta ekvivalentlar tarjimasida Maxtumquli tarjimonlari juda ko'p xato-nuqsonlarga yo'l qo'yishgani kuzatildi. Tarjima va asliyat taqqoslanganda *am, кифоят, хатыра, яд* kabi qator turkmancha so'zlarning o'zbekchaga o'girilgan variantlari soxta ekvivalent sifatida qiyosiy muhokama qilindi [8, 15].

Boshqa holatlar qatorida, leksik-fonetik yoki leksik-grammatik interferensiyalar natijasida kelib chiqadigan ifoda tomondan ayrim farqlar (grammatik yoki fonetik) bo'lgan qisman kongruent so'zlarning bir-biriga ta'sir etuvchi xatolarini qayd etish mumkin. Natijada, so'z ona / dominant tilning shakllaridan kelib chiqib noto'g'ri ishlatiladi.

M.Zokirov [2] o'z dissertatsiyasida Pirimqul Qodirovning «Xalq tili va realistik proza» kitobidan quyidagi misolni keltiradi:

O'zbek va tojik xalqlari ming yillar mobaynida bir hududda yashaganliklari tufayli yuqorida keltirilgan leksik-semantik interferensiyaga oid misollarni faqat og'zaki nutqdan emas, balki badiiy asarlardan ham keltirish mumkin. Bunday dalillar, ayniqsa, Sadridin Ayniy asarlariga xos [7, 166].

«Qullar» romanining o'zbekcha variantida shunday holat kuzatiladi:

*«Cholning boshidagi oq qo'y terisidan tikilgan telpak, **ustidan o'ralgan ikki-uch pechlik salla**, sallaning ustidan qadalgan misvak va joynamoz ustida chipor ilondek cho'lg'anib yotgan hurma danagidan yasalgan uzun tasbeh bu cholning so'filardan biri bo'lganini ko'rsatar edi. Qora uyning ichida to'shalgan qimmatbaho pandi kigizi, uyning o'rta beliga yonib turg'an gulxan va uning ustida doimo osilib turg'an qora **choyjushi** bu cholning **mehmonnavoz** bir kishi ekaniga dalolat qilar edi.*

Mazkur parchada Buxoro va Samarqand o'zbeklarining nutqida uchraydigan tojikcha so'zlarni qo'llash kuzatiladi. «Choydish» o'rnida «choyjushi», «mehmondo'st» o'rnida «mehmonnavoz» qo'llangan. Mazkur

soʻzlar tojik adabiy tili meʼyorlariga toʻla toʻgʻri kelsa ham, oʻzbek tilida qoʻllanishi bir oz erishroq tuyuladi. «*Telpak ustidan oʻralgan ikki - uch pechlik salla*» jumlasini olaylik. Oʻzbek tilida «*sallaning pechi*» birikmasi boshga oʻralgan sallaning chekkadan osiltirib qoʻyilgan qismi, uchiga nisbatan qoʻllanadi» [11, 582]. Aslida bu oʻzbek tilidagi «*pech*» oʻram emas, «*pesh*» («*oldi, uchi*») degan soʻz boʻlsa kerak. Ammo oʻzbek tiliga «*pech*» shaklida kirib kelgan. Sadridin Ayniy esa telpakka ikki - uch oʻralgan sallani tojikcha «*pechidan*» («*oʻralmoq*») soʻzining oʻzagiga moslab, «*ikki - uch pechlik salla*» deb tasvirlaydi. Vaholonki, bu jumla oʻzbekchada tojik tiliga nisbatan butunlay teskari maʼnoni bildiradi, yaʼni telpakka ikki-uch oʻralgan sallani emas, aksincha, telpakdan ikki-uch pechi osilgan sallani anglatadi. Buni Oybekning «*Navoiy*» romanidan olingan quyidagi misol ham tasdiqlaydi: «*Uzun pechi osilgan katta sallali boshini chayqadi*».

«Maʼlumki, turkman tili turkiy tillarning janubi-gʻarbiy (oʻgʻuz) gruppasiga taalluqli til hisoblanadi. Oʻzbek tili esa turkiy tillarning qarluq gruppasiga xos. Bu ikki til vakillari asrlardan beri bir-birlari bilan yonma-yon, bir xil moddiy-madaniy, siyosiy-tarixiy sharoitda yashab kelishgan. Shu sababli ularning tillarida umumturkiy leksik-grammatik xususiyatlar koʻp uchraydi».

Baʼzan turkman tilini yaxshi bilmaslik tarjimonni adashtiradi. Masalan, E.Ochilov ham oʻzining dastlabki tarjimalarida bir qator xatolarga yoʻl qoʻygan. Avvalgi mutarjimlarning baʼzi xatolari uning tarjimasida ham aynan takrorlangan (masalan, *сўнам* – (sanam), *жаҳыллык* – (johillik), *дулук* – koʻp (toʻliq soʻzidan kelib chiqib), *көз* (choʻgʻ) – koʻz, *ышык* (chiroq) – oshiq va hokazo). Uni ham sof turkmancha soʻzlar va soxta ekvivalentlar chalgʻitgani kuzatiladi [10, 24]. J.Sharipov tarjimalarini til nuqtai nazaridan tekshiradilar; tarjimonni xato qilishga majbur etgan oʻzbek va turkman tilidagi «shaklan yaqin va mazmunan yiroq» soʻzlarni tillararo omonimlar hamda tillararo paronimlar deb ikki guruhga ajratib oʻrganadilar» [10, 46-53]. Bunda omonimlarga turkmancha *жаҳыл* (yosh yigit) soʻzining *johil*, *nodon*, shunga muvofiq, *жаҳыллик* (yoshlik)ning johillik, *ал* (ayyor, hiylagar) ning *qoʻl* deb notoʻgʻri oʻzbekchalashtirishi, paronimlarga *дон* (toʻn) ning *дон*, *муче* (aʼzo, uzv) ning muchal, *дулук* (tullik)ning toʻliq, *хөдүр* (tavsiya, taklif)ni bekor, *дуймаз* (sezmas, bilmas)ning toʻymas, *бела* (balo) ning bola, *угратдым* (kuzatdim, joʻnatdim)ni uchratdim deb tarjima qilinishini keltirishadi. Olimlar bunday «aldogʻchi soʻzlar»ning tarjimonga pand berishining asosiy sababi sifatida uning turkman tilini etarli darajada bilmasligini koʻrsatadilar va kelgusida bu xildagi xatolarning oldini olish maqsadida oʻzbekcha-turkmancha, turkmancha-oʻzbekcha lugʻatlar tuzishni taklif qiladilar [10, 52].

Shunga o'xshash misollar M. Shvey va O.Leshakning polyak-rus va polyak-ukrain tillararo leksik-semantik nomutanosibliklar asarida ko'rib chiqilgan [13, 111-134]. Masalan, derivatsion interferensiya natijasida polshalik rus tilidagi «защита» o'rniga «защитение», rus tilidagi «почувствовал себя» o'rniga «почувствовался», rus tilidagi «музыкальный» o'rniga «музычный», rus tilidagi «пробуждение» o'rniga «перебуждение», rus tilidagi «выпачканный» o'rniga «упачканный», rus tilidagi «ухудшилась» o'rniga «похудела (погода)» deb ishlatishi mumkin [13]. Bu holatni o'zbek-rus tili misolida ham ko'rishimiz mumkin. Yaqindagina diplom olib, radioda ishlayotgan yosh “mutaxassis” tomonidan aytil “Lev Tolstoyning “Yakshanba” romani bor” deganligini olishimiz mumkin. Rus tilidagi *воскресение* 'tirilish' va *воскресенье* - 'yakshanba' derevatsion interferensiyaning natijasidir.

Kongruent so'zlar natijasida kelib chiqqan tillararo interferensiyaning yana bir turi – bu sintaktik interferensiya, ya'ni ona tilining shakl va mazmun jihatdan o'xshash konstruksiyalari ta'siri ostida chet tilida g'aliz jumla va so'z birikmalarini tuziSh. Masalan, «от мысли о ... » o'rniga «облизывался на мысль о ... » (polyak tilida «na myśl o ...»), «в тот день» o'rniga «того дня» (polyak tilida «tego dnia»), «в отличие от ... » o'rniga «в противоречии до ... » (polyak tilida «w przeciwieństwie do ... ») yoki «на камне» o'rniga «на камню», «ныряющих уток» o'rniga «смотрит на ныряющие утки», «на автобусе» o'rniga «еду автобусом», «вернулся в палатку» o'rniga «вернул в палатку», «проверили у нас билеты» o'rniga «проверили нам билеты», «улыбался ей» o'rniga «улыбался до нее», «недалеко от нашего дома» o'rniga «недалеко нашего дома», «за дерево» o'rniga «цепляясь дерева», «работавший» o'rniga «работающий тогда в столице», «оставив» o'rniga «умерла, оставляя маленького сына», «уютная» o'rniga «она очень уютна» [13]. Sintaktik interferensiyaga doir ko'plab misollarni tojiklarning o'zbek tilidagi nutqida uchratish mumkin. Masalan, o'zbekcha inkor gaplarning kesimi funksiyasida qo'llanadigan emas, yo'q so'zlari tojik tilidagi ne inkor yuklamasiga to'g'ri keladi. Shuning uchun tojik tilining semantik – sintaktik interferensiyasi natijasida mazkur so'zlar o'zaro almashuvi mumkin. Masalan:

- Bugun jumami?
- Yo'q, bugun juma yo'q, shanbe.
- Jo'ra kecha kelgani emas.
- Bu o'roq yo'q, kach kort [2, 82].

Ayrim holatlarda yuqorida ko'rib o'tilgan interferensiyaning bir nechta turlari birgalikda murakkab holatlarda ham uchrashi mumkin.

Bilingv nutqidagi bunday interferensiyani oldini olish uchun, avvalambor, taqqoslanadigan tillarning lug'at boyligini kontrast holda tahlil qilish kerak. Uning maqsadi uslubiy buyoqdorlikka ega, qo'llanilish chastotasi, foydalanish sohasi, konnotatsiyasi, shuningdek, jins, shaxs-son singari grammatik farqlanishlarga ega bo'lgan kongruent so'zlarni ajratib ko'rsatishdir. Keyingi qadam – bu interferensiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan kongruent so'zlar lug'atlarini tuzish va nashr etish, shuningdek, bunday lug'atni to'g'ri ishlatish ko'nikmalarini mustahkamlash uchun interferensiyaga qarshi mashqlar to'plamini yaratishdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Акуленко В.В., Комиссарчик С.Ю., Погорелова Р.В., Юхт В.Л. Англо-русский и русско-английский словарь "ложных друзей переводчика". – М., 1969. – С. 374-375.
2. Зокиров М.Т. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2007.
3. Қулдашев Н. А. Эколингвистика: ўзбек тилида тил ва нутқ софлигининг лингвокультурологик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. . – Фарғона, 2021. – Б. 20
4. Нурмонов А. Раҳимов А. Лингвосинергетикага кириш. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 79.
5. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Олий ўқув юртлари ўзбек филологияси факультетларининг талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.11.
6. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М., 1975. – С.36.
7. Пиримқул Қодиров. Халқ тили ва реалистик проза. Т., «Фан», 1973, 166-бет.
8. Сапаева Ф. Махтумқули шеърлари ўзбекча таржималарининг қиёсий таҳлили: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – Б. 14.
9. Сковородников А.П. Экология современного русского языка и роль средств массовой информации в этом процессе. <https://gazeta.sfu-kras.ru/node/307> (murojaat sanasi 20.12.2019).
10. Тайлақова М., Сапаров М. Махтумқули асарлари тилининг ўзбекча таржимасига баъзи бир қайдлар. Ўзбек филологияси масалалари (Илмий асарлар тўплами). – Т.: Фан, 1990. – Б. 52.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. М., «Рус тили», 1981, I-т., 582-бет.

12. Чуковский К. Высокое искусство. Собрание сочинений в 15 томах, том 3. – М. Агентство ФТМ, Лтд, 2012. – С. 330.
13. Швей М., Лещак О. Польско-русские и польско-украинские межъязыковые лексико-семантические диспропорции. *Studia Rusycystyczne Akademii Świętokrzyskiej*, том 11. – Kielce 2002. – С. 111-134.
14. Шилюнова А.А., Перевод интернациональной лексики. http://ttech.pstu.ac.ru/mnp04/mnp04/s6/6_3.rtf .(murojaat sanasi 20.05.2019)
15. Ярцова В.Н. Развитие национального литературного английского языка. - М., 2021. – 286 с.

XURSHIDNING TARJIMONLIK MAHORATI

Ergash OCHILOV,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

bo'lim mudiri, filologiya fanlari nomzodi,

E-mail: e-ochilov@mail.ru. Tel: +998946204764

Annotatsiya

Maqolada Sharq soʻz sanʼati bilimdoni Xurshidning tarjimonlik mahorati u muvaffaqiyat bilan amalga oshirgan Xoʻja Hofiz gʻazal va ruboiylari tarjimasini tahlili misolida koʻrsatib beriladi. Fors tili va adabiyotini, mumtoz sheʼriyatimizning uslubini yaxshi bilgan mutarjim Hofiz gʻazallari tarjimasini misolida tarjimada asliyat ruhiga kirish, muallif uslubini saqlash, asarning oʻziga xos ichki musiqasi va ohangini etkazishning goʻzal namunalarini namoyon etibgina qolmay, forsiy va turkiy adabiyotning mushtarak anʼanalari va umumiy jihatlari asosida asrlar mobaynida qaror topgan vazn, qofiya, radif, mavzular olami, obrazlar koʻlami, har ikki tilda mavjud soʻz va iboralardan samarali foydalanish imkoniyatlariga eʼtibor qaratdi va bu omillarning tarjima muvaffaqiyatini taʼminlash yoʻlidagi imkoniyatlarini oʻz tarjimalari misolida koʻrsatib berdi. Oʻzining aruzda bajarilgan sof oʻzbekona tarjimalari bilan hozirgi oʻzbek tili ham aruz talablariga javob berishini amalda isbot etdi. Tarjimadan maqsad aslida u yoki bu asarning mazmunini ikkinchi bir tilda qayta yaratishning oʻziga boʻlmay, uni oʻsha tilda jaranglata olish, tarjima qilayotgan xalq adabiyotining adabiy hodisasiga aylantirishdan iboratdirki, Hofiz gʻazallari tarjimasida Xurshid bu vazifaning uddasidan chiqqan.

Kalit soʻzlar: Hofiz, Xurshid, tarjima, tarjimon, gʻazal, ruboiy, aruz, vazn, mazmun, shakl, sanʼat, radif, mahorat.